

ODAM VA CHORVA MOLLARIDA PARAZITLIK QILUVCHI TASMASIMON CHUVALCHANGLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti “Kimyo-biologiya” kafedrası v.b.dotsenti (PhD), E-mail: xakberdiyevashoira81@gmail.com

Turopova Muxlisa Barot qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti E-mail: turopovamuxlisa223@gmail.com

Raimova Feruza Jumanazar qizi

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 33 maktabda o'qtuvchi E-mail: feruzaraimova19950227@gmail.888com

Annotatsiya: Tasmason chuvalchanglar (Cestoda sinfi) odam va chorva mollari ichaklarida yashaydigan, murakkab hayot sikliga ega parazitlardir. Ular oziqlanish muvozanatini buzadi, organizmga toksik va mexanik zarar yetkazadi. Ushbu maqola parazitlarning biologik hayot sikli, ularga moslashish xususiyatlari, iqtisodiy va ekologik ahamiyati hamda ularni aniqlash va oldini olish choralari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Tasmason chuvalchanglar, parazitizm, Cestoda, Taenia, Echinococcus, parazitlar ekologiyasi, antipazitar profilaktika.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЛЕНТОЧНЫХ ГЕЛЬМОВ, ПАЗИТИРУЮЩИХ У ЧЕЛОВЕКА И ДОМАШНЕГО СКОТА

Аннотация: Ленточные черви (класс Cestoda) – паразиты со сложным жизненным циклом, обитающие в кишечнике человека и сельскохозяйственных животных. Они нарушают баланс питательных веществ, вызывают токсические и механические повреждения организма. В статье представлена подробная информация о биологическом цикле паразитов, их адаптивных особенностях, экономическом и экологическом значении, а также мерах выявления и профилактики.

Ключевые слова: Ленточные черви, паразитизм, Cestoda, Taenia, Echinococcus, экология паразитов, противопаразитарная профилактика.

BIOLOGICAL PROPERTIES OF TAPEWORMS PARASITIC IN HUMANS AND LIVESTOCK

Annotation: Tapeworms (class Cestoda) are parasites with a complex life cycle that live in the intestines of humans and livestock. They disrupt the nutritional balance, cause toxic and mechanical damage

to the body. This article provides detailed information on the biological life cycle of parasites, their adaptive features, economic and ecological importance, and measures for their detection and prevention.

Keywords: Tapeworms, parasitism, Cestoda, Taenia, Echinococcus, parasite ecology, antiparasitic prophylaxis.

KIRISH

Tasmasimon chuvalchanglar voyaga yetgan davrida umurtqali hayvonlar va odam ichagida parazitlik qiladi. Ularning lichinkasi umurtqasiz va umurtqali hayvonlar tana bo'shlig'i va ichki organlarida parazitlik qiladi.

Tuzilishi: Tanasi ko'pincha uzun tasmasimon bo'lib ko'p sonli bo'g'imlar - proglotidlarga bo'lingan. Tanasining oldingi qismi kichik boshcha - skoleksni hosil qiladi. Tananing skoleksdan keyingi bo'g'imlarga bo'linmagan qismi bo'yin deyiladi, undan keyinda esa proglotidlar joylashgan.

Tashmasimon chuvalchanglar boshchasida yopishuv organlari bo'ladi. Yopishuv organi monogeniyalar singari so'rg'ichlar tipida yoki ikkita tiqishsimon chuqurchadan iborat bo'lishi mumkin. Proglotidlar uchdan bir necha mingtagacha bo'ladi.

Oldingi, ya'ni tanasining bo'yin qismida joylashgan proglotidlar juda mayda yosh proglotidlardan iborat.

Chuvalchang bo'yin qismidan yangi proglotidlar hosil qilib o'sadi. Proglotidlar tananing keyingi qismida siljigan sayin o'sib, yiriklasha boradi. Tasmasimon chuvalchanglarning ana shunday judda ko'p bo'g'imlardan iborat tanasi zanjir, ya'ni strobila deyiladi.

Oziqlanishi: Tasmasimon chuvalchanglar oziqlanishni xo'jayin organizm ichaklari orqali so'rilgan ozuqa moddalaridan amalga oshiradi. Ularning tanasi epiteliy orqali oziq moddalarni so'rishga moslashgan. Ko'payishi:

Tuxum bosqichi: Parazitning tuxumlari xo'jayin organizmidan tashqi muhitga chiqadi.

Lichinka bosqichi: Oraliq xo'jayin rivojlanadi. Masalan, Echinococcus tuxumlari qo'ylarda gidatid kista hosil qiladi.

Voyaga yetgan shakl: Asosiy xo'jayin organizmda rivojlanib, ichakda yashaydi va ko'payadi. Jinsiy ko'payishning yuqori samaradorligi. Parazitizmga moslashgan belgilari: Tana tuzilmasining segmentlanganligi tuxumlarning ko'proq ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Xo'jayin organizmning immun tizimiga moslashish mexanizmlarining yaxshi rivojlanganligi misol bo'ladi.

Asosiy qism. Tasmasimon chuvalchanglarning turli turlari va ularning asosiy xo'jayinlari.

Odamda uchraydigan asosiy parazitlar: Taenia solium (cho'chqa soliteri). Xo'jayini: Cho'chqa (oraliq), odam (asosiy). Kasallik: Taenioz (ichaklarda), sistitserkoz (organlarda kista). Yuqishi - Iflos qo'l orqali tuxumlar oshqozonga tushib qolganida, tuxumdan chiqadigan lichinkalar odamning jigari, miyyasi, ko'zi va boshqa joylariga borib, finnaga aylanadi. Finnalar og'ir oqibatlariga, ba'zan o'limga olib keladi. Zararlangan odam ko'ngli aynib qayt qilganida uning barcha organlari cho'chqa tasmasimon tuxumlari bilan bilan

yoppasiga zararlanishi mumkun. Chunki odam ko'yli aynab qusganida bo'g'imlsri uzulib oshqozonga chiqadi; oshqozon shirasi orqali esa butun tana a'zolariga tarqalib finnaga aylanadi.

Taenia saginata (mol soliteri). Xo'jayinlari: Mol (oraliq), odam (asosiy). Kasallik: Taenioz, ichak shikastlanishi. Zararlarga yaxshi pishirilmagan finnali go'sht yoki jigar odam ichagiga tushganidadan so'ng rivojlanib voyaga yetadi. Zararlarga maxsulot odam ichagiga tushganida pufak ichidagi boshcha tashqariga chiqadi. Pufak yemirilib, lichinka boshchasi va bo'yinchasi tez rivojlanadi. Ana shu tariqa inson parazitni yuqtirishi mumkun.

Echinococcus granulosus: xo'jayini: Qo'y, echki, cho'chqa (oraliq), odam va it (asosiy). Kasallik: Gidatid kista kasalligi, organizmning ko'plab organlariga zarar yetkazadi. Yetuk echinokokkning o'lchami uzunligi 2 dan 7 mm gacha. Ular bosh va segmentlardan iborat (4 dan 6 tagacha). Bir nechta segmentlar aseksual bo'lib, biri germafrodit, ikkinchisi urg'ochi bo'lib, ularda 800 tagacha tuxum ko'tara oladigan bachadon mavjud. Odamlarda parazit organik suyuqlik bilan to'ldirilgan yumaloq yoki oval kist sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Chorva mollarida uchraydigan parazitlar: Moniezia expansa. Xo'jayinlari: Qo'y, echki. Ta'siri: Ichaklarda ozuqa so'rilishining buzilishi, diareya, vazn yo'qotish. Monozeniya otlar va chorva mollari ichagida parazitlik qilib, og'ir ichak kasalligini paydo qiladi. Monozeniya bilan kasallangan hayvonlar ko'plab ko'plab qirilib ketadi. Monozeniyaning mayda finnalari sovutli kanalar (Oribatidae oilasi) tanasida rivojlanadi. Hayvonlar kanalarni o't bilan yutib zararlanadi.

Thysaniezia giardi: xo'jayini: Qoramol. Ta'siri: Iqtisodiy zarar – vazn yo'qotish va mahsuldorlikning pasayishi. Kasallik xususiyatlari: Ko'pincha kasallik surunkali va aniq o'ziga xos klinik belgilarsiz davom etadi. Ammo shunga qaramay, invaziyaning yuqori intensivligi bilan ovqat hazm qilish kanalining disfunktsiyasi qayd etiladi: diareya, ich qotishi. Tushkun holat, ikkilamchi kelib chiqadigan mahsulotlar bilan tananing intoksikatsiyasi, ko'rinadigan shilliq pardalarning anemiyasi, tana mushaklarining konvulsiv qisqarishi va harakatlarning muvofiqlashtirilmasligi natijasida tuprik paydo bo'ladi. Yosh hayvonlar orasida o'lim kech kuzda kuzatiladi.

Tasmasimon chuvalchaglarning organizmga salbiy ta'siri. Odam va hayvonlar salomatligiga zarari:

Ozuqa moddalarining talon-taroj qilinishi: Mezbonning energiya manbalarini iste'mol qilib, ozuqaviy tanqislikka olib keladi.

Intoksikatsiya: Parazitlar chiqindilari xo'jayin organizmda zaharlanishga sabab bo'ladi.

Immun tizimining zaiflashuvi: Uzoq davom etgan invaziya xo'jayinning immunitetini pasaytiradi.

Mexanik shikastlanishlar: Ichak devorlariga zarar yetkazadi, obstruksiyaga sabab bo'lishi mumkin.

Organlar faoliyatining buzilishi: Sistitserkoz va gidatid kistalar organlarning siqilishi va faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Iqtisodiy zarar: Chorva mollarining mahsuldorligining pasayishi. Yuqtirgan hayvonlarning go'shti va mahsulotlarining sanitariya talablari bo'yicha yaroqsiz bo'lishi.

Tasmasimon chuvalchanglarning ekologik ahamiyati. Tasmasimon chuvalchanglar oziq zanjirining bir bo'lagi sifatida tabiiy populyatsiyalarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi: Populyatsiya boshqaruvi: Oraliq xo'jayinlarning populyatsiyasini cheklash orqali ekotizimni muvozanatlashda ishtirok etadi. Tuxum va lichinkalar ekotizimda oziq manbai sifatida xizmat qiladi: Tuxumlar boshqa organizmlar uchun oziq bo'lib, tabiatda biologik siklni ta'minlaydi.

Tasmasimon chuvalchanglar bilan kurashish va oldini olish choralari. Diagnostika va monitoring. Laborator tahlillar: Mezbon najasida tuxum va segmentlarni aniqlash. Tasvirlash texnologiyalari: Organlarda kistalarni aniqlash uchun ultratovush yoki MRT. Oldini olish va nazorat choralari. Ovqatni termik ishlovdan o'tkazish: Mol va cho'chqa go'shtini yetarli darajada pishirish. Chorva mollarini muntazam tekshirish: Antiparazitar dorilar bilan davolash. Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish: Ovqatlanishdan oldin qo'llarni yuvish, axlat va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish. Itlar va yovvoyi hayvonlarni nazorat qilish: Tasmasimon chuvalchanglar siklida asosiy mezbon bo'lgan itlarni antiparazitar preparatlar bilan davolash.

Xulosa: Tasmasimon chuvalchanglar (Cestoda) odam va chorva mollarida parazitlik qiluvchi muhim organizmlar bo'lib, ularning biologik ahamiyati turli jihatlar bilan izohlanadi. Ular asosan oshqozon-ichak tizimida yashab, ozuqa moddalarini so'rib olish orqali mezbon organizmning salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Natijada, odamda va chorva mollarida immunitet pasayishi, o'sishning sekinlashuvi, mahsuldorlikning kamayishi va turli kasalliklarning rivojlanishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ularning biologik ahamiyati tibbiyot, veterinariya va ekologiya sohalarida muhim ilmiy tadqiqotlar uchun ob'ekt bo'lishida namoyon bo'ladi. Parazitlarning hayot tsikllarini o'rganish yangi dori vositalari va profilaktika choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ular ekologik muhitning holatini tahlil qilishda ham muhim bioindikator hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, tasmasimon chuvalchanglarning biologik ahamiyati zararli ta'sir ko'rsatishidan tashqari, ilmiy tadqiqotlar va sog'liqni saqlash choralari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ular bilan kurashish uchun samarali profilaktika va davolash usullarini ishlab chiqish inson va chorva mollarining salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Schmidt, G. D., & Roberts, L. S. (2017). Foundations of Parasitology (10th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Bowman, D. D. (2020). Georgis' Parasitology for Veterinarians (11th ed.). Elsevier
3. Haqberdiyeva S. T. The role of pedagogy and psychology in improving the methodology of teaching biology based on a general approach to secondary schools // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 6. – C. 115-118.
4. Haqberdiyeva S. T. Improving the Teaching Methods of Biology in General Secondary Schools on the Basis of A Competency-based Approach // Academia Globe. – 2022. – T. 3. – №. 03. – C. 132-136.



5. Tursunaliyevna H. S., Nozima A. Effectiveness of using innovative technologies in teaching the morphology of bacteria //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 60-66.

6. Bekmurodov A.S., Turopova M.B. Surxondaryo viloyati ayrim yovvoyi dorivor o'simliklarining nematodalari // Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. Xiva. 12/1/2023. B. 17-21.